

LINGVISTIK KOMPETENSIYAGA DOIR TA'LIM MAZMUNI VA STRUKTURASINI TAKOMILLASHTIRISH

S.S.Tajbenova – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: leksik, grammatik, fonologik, vosita, struktura, lingvistik kompetensiya, til birliklari, termin, qoida, tavsif, talaffuz, nutqiy xatolar, savodxon, badiiylik.

Ключевые слова: лексический, грамматический, фонологический, средство, структура, лингвистическая компетенция, языковые единицы, термин, правило, описание, произношение, речевые ошибки, грамотность, артистизм.

Key words: lexical, grammatical, phonological, means, structure, linguistic competence, language units, term, rule, description, pronunciation, speech errors, literacy, artistry.

Kirish. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limidan ko'zlanadigan asosiy maqsad fan asoslarini o'rgatish emas, balki o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish etib belgilandi. Asosiy maqsadning o'zgarishi munosabati bilan ta'lim mazmuni, metod va usullari ham muayyan o'zgarishlarga uchrashi tabiiy.

Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limi mazmunida ma'lum darajada til hodisalarini izchil kursga yaqin o'rganish rejalashtirilsa-da, aksariyat holatlarda nazariy bilimlar berilishida tarqoqlik ham kuzatiladi. Masalan, o'quv dasturiga ko'ra dastlab fonetika va grafikaga oid mavzular muayyan izchillikda kiritiladi. Shundan keyin boshqa sathlarga doir ma'lumotlar matn ehtiyoji bilan bayon qilinadi, uzuq-yuluq taqdim etiladi. 1-4-sinflarda o'rganilishi lozim bo'lgan til hodisalari nutqiy ehtiyoj bilan saralangan taqdiridagina, pirovard bilimlarga aniqlik kiritilgan holatidagina sinflar bo'yicha taqsimot asosli chiqadi.

Adabiyotlar tahlili. Ko'pgina metodist olimlar lingvistik kompetensiyaga doir egallanishi lozim bo'lgan ta'lim mazmunini nutqiy ehtiyoj bilan bog'laydilar. Masalan, T.V.Yudina ham "lingvistik kompetensiyani o'rganilayotgan chet tilning leksik, grammatik va fonologik vositalaridan turli janrlardagi og'zaki va yozma diskursni yaratishda madaniyatlararo muloqotning kundalik va kasbiy vaziyatlarda savodli foydalanishga layoqatlilik va tayyorlik sifatida" ko'radi [1]. Boshlang'ich sinflarda nutq, ayniqsa, matn yaratish ehtiyojlari o'quvchilarning yoshi, bilim saviyasi, imkoniyatlari bilan tavsiflanadigan o'z chegaralariga ega.

Metodik adabiyotlarda lingvistik kompetensiya deganda uning o'ziga xosliklari, mohiyati, xususan, tabiatini ochishga qaratilgan talqinlarga ko'ra tilning qonun-qoidalariga amal qilgan holda nutqiy muloqot jarayonida faol bo'lish, darsda o'rganilayotgan til hodisasini o'zlashtirib, qo'llash yuzasidan tegishli malakadan ham yuqori turuvchi yangi kamolot cho'qqisini zabt etish tushuniladi. Shunday bo'lgach, L.V.Cherepanova sanab ko'rsatganidek, lingvistik kompetensiya sohibining o'quv-biluv faoliyati ta'lim olish motivlari va ehtiyojlari, qiziqishlari, shaxsiy fazilatlar: tirishqoqlik, qiziquvchanlik, o'qishga intilishlari (havasi), bilimga chanqoqligi, nazariy tafakkuri, tanqidiy fikrlashi, rivojlangan refleksivligi, axloqiy sifatleri bilan ajralib turadi [2].

Muhokama va natijalar. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida BKMIlarni o'rganish orqali dastlabki bosqich lingvistik kompetensiyasini shakllantirish uchun poydevor qo'yiladi. Bu davrda ona tilining qonun-qoidalarini qay darajada egallash mumkin, degan savol tug'ilishi tabiiy. Shubhasiz, savolga o'quv fani davlat ta'lim standartlari va

o'quv dasturlarida belgilanib, amaliyot natijalari asosida tobora stabilashib borayotgan ta'lim mazmuni bilan javob berish joiz. Bu borada ona tili o'qituvchilarining ta'lim mazmuni yuzasidan to'plagan ilg'or ish tajribalarini ham ommalashtirish muhim rol o'ynaydi.

Mavjud ta'lim mazmunini takomillashtirish (kengaytirish yoki ixchamlash), nutqiy savodxonlikni ta'minlash imkoniyatlari doirasida qayta ko'rib chiqishda biror tushunchaning yetishmayotganligi va, aksincha, ta'lim bosqichi uchun noqarorligi haqidagi tahliliy xulosalar inobatga olinadi, shu asnoda ta'lim mazmuniga aniqliklar kiritiladi. Bunda boshlang'ich sinflarda lingvistik kompetensiyani shakllantirishga doir talablar ham nazarda tutiladi.

Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limi mazmunida talaffuzi va yozilishini, qo'llanishini o'rganish lozim bo'lgan til birliklari nutqiy savodxonlikni ifoda etuvchi omillarning asosiysi hisoblanadi. Til birliklari haqidagi nazariy ma'lumotlar esa, asosan, termin va qoidalar (tavsiflar)ni o'z ichiga oladi.

Terminni bilish ikki xil maqsad zaruriyati bilan yuzaga keladi:

- 1) qoida mazmunini tushunish;
- 2) qoidani qidirib topish.

Terminlar bilimlar sirasiga kiradi. Lingvistik kompetensiya ustidagi ishlarning birinchi bosqichini til hodisalari bilan bog'liq bilimlar tashkil qiladi. Termin qaysi til hodisasi o'rganilishiga ishora qiladi, shu jihati bilan nutq o'stirishga bivosita xizmat qiladi. Lekin ba'zan ilgari o'rganilgan qoidani eslash uchun darslikdan izlash lozim bo'lgan til sathini topishga yordam beradi. Bunday zaruriyat tug'ilmaydigan terminlar til sathiga taalluqli bo'lsa-da, til hodisasiga ishora qilmaydi. Masalan, -roq qo'shimchasining qo'llanishi savol tug'dirs, o'quvchi uni sifat yoki ravish sathidan qidiradi. Ot, sifat, son, fe'l so'z turkumlari haqida beriladigan ma'lumotlarda ham shunday holat kuzatiladi.

Termin tushuncha anglatadi. "Методика преподавания русского языка в школе" nomli darslikda ta'kidlanishicha, bir xil til hodisalari faqat funksiyaga, boshqa xillari esa funktsiya va ma'noga ega. Birinchi xillari bir tomonlama birliklar sanaladi, masalan, fonema, bo'g'in; ikkinchi xillari esa ikki tomonlama birliklar hisoblanadi, masalan, qo'shimcha, so'z, gap. Ular o'z ichida tarkibiy va semantik xossalarni birlashtiradi. Tabiiyki, u yoki bu tushunchalarni o'rganishga bo'lgan yondashuv turlicha bo'lishi kerak [3]. Ikkala holatda ham termin tegishli qoidani qayerdan izlash kerakligiga ishora qiladi.

Til birliklari tovush-harflardan tortib to matngacha bo'lgan til hodisalarini ifoda etib, ularning miqdori boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutq o'stirish

ehtiyojlari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni izchil egallash imkoniyatlari doirasi bilan ajratiladi, til boyligining turli ma'no qirralarini anglatuvchi vositalarini o'zlashtirish sari yo'naltirilib, ularni nazariy anglash, to'g'ri talaffuz qilish va yozish, to'g'ri qo'llash, nutqiy xatolarni bartaraf etib borish, savodxon bo'lish, muloqot madaniyatini tarbiyalash kabi maqsadlarni ko'zda tutadi.

M.A.Kenjaeva til birliklarini tanlashga doir quyidagi talablarni ilgari suradi:

1) matn asosida tahlil qilinadigan til birliklarini chegaralash;

2) matn tahlili asosida chiqariladigan xulosada bitta til birligi bilan kifoyalanish;

3) xulosa chiqarishda bolalarni faollashtirish;

4) terminlarni yuqori sinflarda o'rganiladigan terminlar bilan uyg'unlashtirish;

5) yangi terminlar ixtiro qilmaslik, terminlarda ma'nodoshlikka yo'l qo'ymaslik;

6) amalda qo'llanmaydigan, biror qoidani o'rganishda vositachilik qilmaydigan termin-tushunchalarni kiritmaslik [4];

BKMga doir nazariy ma'lumotlarni belgilashda o'quvchilar nutqida qo'llaydigan til hodisalari nazarda tutilsa, termin shu til hodisasini nima deb atash kerakligini o'rgatadi, xolos. Lekin bunday vaziyatda bilimlarning lingvistik kompetensiya uchun xizmati juda kam bo'ladi: qoidani terminsiz tuzib bo'lmaydigan holatlardagina asqotadi.

Lingvistik kompetensiya va kompetentlikka doir BKMlar, kommunikativ bilimlar va malakalar, kompetensiyaviy bilim va malakalar:

Bilimlar:

- termin-tushuncha, uning izohi;
- til hodisasi, uning ma'no-mazmuni, qo'llanish xususiyatlari haqidagi izohi (qoida);
- kommunikativ jihat;
- nutqda qo'llangan xatoni aniqlay olish, uni tuzatish haqida maslahat berish.

Ta'lim qozoq tilida olib boriladigan boshlang'ich sinflarda ona tilidan tanlanadigan ta'lim mazmuni quyidagi til birliklari doirasida belgilanishi mumkin:

“Fonetika” va “Grafika” bo'yicha: unli va undosh tovush; jarangli va jarangsiz undosh tovush; harf; bo'g'in; yo'g'on bo'g'in, ingichka bo'g'in; bo'g'in ko'chirish;

Ayrim tovush-harflar bilan, bo'g'in ko'chirish bog'liq qoidalar ko'zda tutiladi.

“Leksikologiya” bo'yicha: so'zning o'z ma'nosi; so'zning ko'chma ma'nosi (o'quv dasturida); so'zlar ortida yashiringan ko'chma ma'noni anglash (topishmoqlar misolida); olinma so'zlar. Ushbu so'zlarning qo'llanish xususiyatlari. So'zlardagi tovushlarning pozitsion o'zgarishlari bilan bog'liq imlo qoidalari.

Morfologiya sathida birinchi navbatda ot so'z turkumi bilan bog'liq bilimlar sirasida quyidagilarni ajratish maqsadga muvofiq:

Atoqli otlar imlosi, ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalarining, -niki, -dek, -day, -gacha, -dagi shakllarining talaffuzi va yozilishi, qo'llanishi.

Kelishik qo'shimchalari: -ның, -дың, -тың, -нің, -дің, -тің; -ға, -ге, -на, -не, -қа, -ке, -а, -е; -ны, -ды, -ты, -ні, -ді, -ті; -да, -де, -нда; -та, -те, -нде; -нан, -дан, -тан, -нен, -ден, -тен; -мен, -бен, -пен

Ot-kesim qo'shimchalari: -мын, -мін, -мыз, -міз, -быз, -біз, -пыз, -піз, -сың, -сің, -сыз, -сіз;

Olmosh so'z turkumiga doir: Жіктеу есімдіктері септелгенде, фонетикалық өзгерістерге ұшырайды: мен – менің, сен – саған, ол – оған

Shaxs+son qo'shimchalari: -м, -мын, -мін, -к, -к, -мыз, -міз; -ң, -сың, -сің; -ңыз, -ңіз, -сыз, -сіз; -ды, -ді, -ты, -ті;

Yuklamalar: -ақ, -ау, -ай, -мыс, -міс, -ды, -ді сияқты шылаулар өзінен бұрынғы сөздерден дефис (-) арқылы бөлініп жазылады: көрікті-ақ, айтыпты-мыс, япыр-ай, апыр-ау.

Matn tuzilishi bo'yicha:

- xatboshi;
- gapning birinchi so'zi;
- gapning oxirgi so'zidan keyin qo'yiladigan tinish belgilari;
- gaplarning chegarasi;
- hikoyalashda birinchi gapdagi eganing ikkinchi gapda u (ular) olmoshi bilan almashtirilishi;
- matnda eganing (bir so'zning) takrorlanavermasligi;
- tabriknoma matni qismlari; nutqiy mavzu doirasidagi lingvistik bilimlar; ohang asosida gap maqsadi; shart ergash gapli qo'shma gap va sabab ergash gapli qo'shma gapni to'g'ri tushunib, o'z nutqida qo'llay oladi;

Qo'llangan terminlar: *tabriknoma, matn, nutqiy mavzu, lingvistik bilim, ohang, gap, shart ergash gapli qo'shma gap, sabab ergash gapli qo'shma gap.*

Punktatsiya bo'yicha: (“milliy o'quv dasturi”ning sinflar bo'yicha belgilangan “Lingvistik bilimlar” ruknlarida) undov va so'roq belgilari; ohangga mos tinish belgilari: nuqta, vergul, so'roq, undov; tinish belgilarini qo'ya olish;

Bu yerdagi terminlar: undov, so'roq belgilari, tinish belgilar, nuqta, vergul,

Kommunikativ bilimlar bo'yicha: ohang (intonatsiya), tembr, tezlik, imo-ishora,

Kommunikativlik bilan kompetensiya bir xil narsa emasligi dissertatsiyamizning avvalgi bobida ko'rib chiqilgan edi. Kommunikativlik nutqning ta'sirchanligi bilan ifodalansa, kompetensiya (kompetentlik) o'rganilayotgan til birligi yoki xato qo'llangan til hodisasi yuzasidan kimgadir lingvistik yo'nalishda maslahat bera olishni anglatadi. Kommunikativlikka doir bilimlar, ko'nikma va malakalar kompetensiyaga doir ish turlari uchun zamin yaratib beradi. Ona tilidan shakllanadigan lingvistik kompetensiya boshqa sohalar bo'yicha ish olib borish samaradorligini ham belgilab beradi.

O'qish (badiiylik) (“milliy o'quv dasturi”ning sinflar bo'yicha belgilangan “Lingvistik bilimlar” ruknlarida)

ma'no kuchaytiruvchi vositalar, tabiat bilan bog'liq metaforalar, qofiya va ohangdoshlik; maqollar haqida dastlabki ma'lumotlar; ohangdoshlik; she'rdagi badiiy tasvir vositalari; ohangdosh so'zlar; berilgan so'zga qofiya topish; qofiyadosh so'zlar; tez aytishda tovushlar takrori; topishmoqdagi kalit so'zlar; qofiyadosh so'zlarni aniqlay olish;

Bu yerdagi terminlar: *ma'no kuchaytiruvchi vositalar, metaforalar, qofiya, maqolla, she'r, badiiy tasvir vositalari, qofiyadosh so'zlar, tez aytish, topishmoq, kalit so'zlar.*

Nutq o'stirish bo'yicha:

–og'zaki nutqda so'zlashuvga xos so'zlarning ishlatilishi;

–nutqning kimgadir (yoki kimlargadir qaratilgan bo‘lishi;

–nutqning ta’sirli bo‘lishi;

Ta’lim mazmunida har bir til birligi ko‘rsatilar ekan, unga doir bilim, ko‘nikma va malakalar nazarda tutiladi, lekin ko‘rsatilmaydi. Masalan, qoidalar ham til birligini o‘rgatish mazmunida o‘z ifodasini topadi.

Qoidalar murakkablik darajasiga ko‘ra har xil bo‘lishi mumkin.

Chunonchi:

1) grammatik tahlilni talab etmaydigan oddiy qoidalar;

2) biror usulni qo‘llash tavsiya etiladigan qoidalar;

3) bir necha xil grammatik tahlilni talab etadigan qoidalar (masalan, -ga qo‘shimchasi haqida) [4].

Bularga ayrim qoidalar imlosida o‘xshashlik mavjud bo‘lgan til birliklari (masalan, yo‘g‘on bo‘g‘inga yo‘g‘on qo‘shimcha qo‘shiladigan til birliklari) uchun bitta (ya’ni bir xil) bo‘lishini qo‘shish lozim.

Xulosa. Xullas, boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi fanidan o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan ta’lim mazmunini tanlash va belgilashda o‘rganish zaruriyati mavjud deb ajratilgan til birliklari, matniy, kommunikativ, kompetensiyaviy bilimlar maksimumidan kelib chiqiladi.

Adabiyotlar

1. Юдина Т.В. Обоснование структуры лингвистической компетенции как компонента коммуникативной компетенции студента языкового вуза. // Педагогика. Вопросы теории и практики. 2021. Том 6. Выпуск 4. – С. 629-636.

2. Черепанова Л.В. Формирование лингвистической компетенции школьников в основной общеобразовательной школе. (Теоретические основы): Патореф. дисс. ... доктора пед. Наук. – Москва: 2005. – С. 13-14.

3. Баранов М.Т., Ипполитова Н.А., Ладыженская Т.А., Львов М.Р. Под ред Баранова М.Т., Методика преподавания русского языка в школе: Учебник для студ. высш. учеб. Заведений. – Москва: «Академия», 2001.

4. Кенжаева М.А. 5-6-синф ўқувчиларида лингвистик компетенцияни шакллантириш методикаси. пед. фан.фалсафа док. (PhD) диссертацияси. – Тошкент: 2021. 26-147-б.

5. Плотникова С.В., Шурутенкова В.А., Теория и технология начального языкового образования. Учебное пособие для студентов Института педагогики и психологии детства. Урал.гос. пед. ун-т. – Екатеринбург: 2014.

REZYUME. Maqola boshlang‘ich sinf ona tili darslarida lingvistik kompetensiyaga doir ta’lim mazmuni va strukturasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan.

РЕЗЮМЕ. Статья посвящена совершенствованию содержания и структуры обучения лингвистической компетенции на уроках родного языка в начальных классах.

SUMMARY. This article focuses on improving the content and structure of linguistic competence education in primary school native language lessons.

ҲАЗИРГИ ЗАМАН БИЛИМЛЕНДИРИЎИНДЕГИ СЎЎРЕТЛЕЎ ӨНЕРИНИҢ РОЛИ

Т.В.Уразимова – *көркем өнер таныў илимлари кандидаты, доцент*

Әжисияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты

Таянч сўзлар: замонавий таълим, педагогика, тасвирий санъат.

Ключевые слова: современное образование, педагогика, изобразительное искусство.

Key words: modern education, pedagogy, fine arts.

Кирисиў. Заманагөй билим бериўде сўўретлеў өнери үлкен әҳмийетке ийе болып, ол инсанның ҳәр тәрәппеме раўажланыўына, пикирлеў, дөретиўшилиқ ҳәм мәдениятты қәлиплестириўге хызмет етеди. Сўўретлеў өнериниң билим бериўдеги әҳмийетли тәрәплери: дөретиўшилиқ пикирлеў ҳәм қыял етиўди раўажландырыў, сын көзқарастан пикирлеўди қәлиплестириў, руўхый жақтан раўажландырыў ҳәм өзін-өзи көрсетиў, социалластырыў ҳәм қарым-қатнас, эстетикалық талғам ҳәм гөззаллық сезимин раўажландырыў. Соның ушын да ҳәзирги жәмийетте сўўретлеў өнериниң заманагөй билимлендириў системасындағы орнына итибар күшейди. Адамның инсанлық сыпаты, оның руўхый ҳәм әдеп-иқрамлылық келбети, биринши гезекте, тәрбия ҳәм билимлендириў процесинде қәлиплеседи. Бул жерде, инсанның дүньяға көзқарасының, ақыл-ойының ҳәм дөретиўшилиқ мүмкиншилиқ потенциалының раўажланыўының жеделлестирилиўине жәрдем беретуғын сўўретлеў өнериниң де роли аз болмайды. Билимлендириў процесиниң ҳәзирги заман басқышында өмирдиң ҳәр түрли тараўларында диалогқа, бирге ислесиўге ҳәм жолдаслыққа таяр, дөретиўши инсанды тәрбиялаў ушын жағдайларды жаратыў айрықша әҳмийетли мәселе болып табылады.

Жоқарыда қысқаша айтып өтилген анықтамалардан келип шығып, көркемлик тәрбия инсанның эстетикалық ҳәм дөретиўшилиқ раўажланыўындағы ең зәрүрли курам бөлеклердиң бири болып табылады деп жуўмақ шығарыўға болады. Көркемлик тәрбияның мәселелери, эстетикалық тәрбия ўазыйпаларына қарағанда тарлаў екенлиги гүмансыз: тәрбияланыўшыларда көркем өнерге сүйиспеншиликти, қызығыўшылықты ҳәм көркем өнерге мүтәжликти қәлиплестириў, көркемлик тәрбия ҳәм сўўретлеў уқыпшылығы көнликпелерин, көркемлик сезимлерин, қызығыўшылықларын, талғамын, көркем шығармаларды баҳалай алыў уқыпшылықларын раўажландырыў. Көркемлик тәрбия инсанның жоқары мәденияттын қәлиплестириў, оны жәмийеттиң пүткил раўажланыўы дәўиринде адам тәрәпинен топланған көркемлик қунылықлардың барлық байлықларына тартыў мақсетлерине хызмет етеди.

Тийкаргы бөлим. Сўўретлеў өнериниң улыўма билим бериў системасындағы орнын изертлеў методологиясы теориялық ҳәм әмелий тәрәплерди өз ишине алады. Ол сўўретлеў өнерин оқытыўға ҳәр түрли қатнастарды, оның билим бериў процесиндеги орнын, инсанның қәлиплесиўы ҳәм дөретиўшилиқ қәбилетин раўажландырыўдағы орнын үйрениўди нәзерде тутади.